

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

“ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV” FAKUL'TETI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

5340200 – “Menejment” bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Xarajatlar turkumi va mahsulot tannarxi tuzilishi (“UZSUNGWOO” QK
MCHJ misolida)**

Talaba:

Muxammadaliyev D.

Bitiruv malakaviy ishiga
rahbar-maslahatchi:

kat.o'q.N.Rasulov

Bitiruv-malakaviy ishi 2014 yil ____ iyun kuni dastlabki
himoyadan o'tgan. “Menejment” kafedrasining 2014 yil
____ iyun kungi (№ ____ sonli majlis bayoni) yig'ilishi
qaroriga asosan himoyaga ruxsat berilgan

Farg'ona – 2014

M U N D A R I J A

Mavzu: Xarajatlar turkumi va mahsulot tannarxi tuzilishi

Kirish	3
1-bob. Korxona xarajatlari va mahsulot tannarxining iqtisodiy mohiyati	
1.1.Xarajatlarning iqtisodiy mohiyati va tabiati.....	6
1.2.Korxona xarajatlari va ularni turkumlanishi.....	20
1.3.Mahsulot tannarxini shakllantirishning asosiy omillari.....	41
2-bob. “Uzsungwoo” MCHJ qo’shma korxonasining xarajatlar turkumi va mahsulot tannarxi tahlili	
2.1.“Uzsungwoo” MCHJ qo’shma korxonasi asosiy faoliyati xarajatlarining shakllanishi va uning tahlili	48
2.2.“Uzsungwoo” MCHJ qo’shma korxonasida mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi tahlili.....	62
3-bob. “Uzsungwoo” MCHJ qo’shma korxonasida xarajatlarni kamaytirish yo’nalishlari va ularni boshqarish	
3.1.“Uzsungwoo” MCHJ qo’shma korxonasining xarajatlarni qisqartirish va daromadlilikni oshirish chora-tadbirlari.....	76
3.2.“Uzsungwoo” MCHJ qo’shma korxonasida tannarxni qisqartirishda xarajatlarni boshqarishni o’rni.....	80
Xulosa	86
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	90
Ilovalar	

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlarning asosi va tub maqsadi – mamlakatda yalpi ichki mahsulotni yanada ko'paytirish, aholi ehtiyojlarini to'liq qondirish, xalqimiz va milliy bozorlarimizni sifatli, arzon, raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlash, korxonalar faoliyatini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish, aholini zarur ish joylari bilan ta'minlash, har tomonlama ijtimoiy muxofaza qilish hamda ularning daromadlarini ko'paytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish, pirovardida mamlakatimizning milliy mustaqilligini mustahkamlashdan iboratdir.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan korxona va tashkilotlar ulushi ortib bormoqda.

Ishlab chiqarish korxonalarida samaradorlikni oshirishda xarajatlarni, daromadlarni va tannarxni shakllanishini to'g'ri nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aynan ishlab chiqarishda xarajatlarni, daromadlarni va tannarxni to'g'ri klassifikatsiyalash va xarajatlar hisobini to'g'ri yuritish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim asos hisoblanadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda aksariyat ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy natijalariga nazar solsak ular zarar bilan ishlab kelmoqdalar. Buning asosiy sababi boshqaruv strukturasini va korxonalarda xarajatlarni boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, ishlab chiqarish vositalarining eskirganligi, raqobatbardoshlik darajasini pastligi, innovatsion texnologiyalar jalb etish yuqori darajada emasligi kabi omillar bo'lib hisoblanadi. Ushbu muammolarni e'tiborga olgan holda bitiruv malakaviy ishi mavzusi bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bo'lib korxona xarajatlari va tannarxini kamaytirish yo'nalishlarini tadqiq etishdan

iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- korxona xarajatlari va mahsulot tannarxini iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish,
- korxona xarajatlarini turkumlash va tarkibini aniqlash,
- mahsulot ishlab chiqarish kalkulyatsiyasi tahlili,
- “Xarajatlar – mahsulot xajmi – foyda” ko'rsatkichlari va ularning o'zaro aloqadorligi tahlili,
- korxonada xarajatlarini qisqartirish va daromadlilikni oshirish chora tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan eng asosiy vazifalar quyidagilar:

- Ishlab chiqarish xarajatlarini o'rganish va ularning holatiga baho berish;
- Mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha belgilangan rejaning bajarilishi va dinamikasi nazorat qilish;
- Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementi va kalkulyatsion moddalari bo'yicha o'rganish;
- Tannarxning o'zgarish sabablarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy jihatdan hisoblash;
- Tannarxni pasaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash;
- Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib, “UZSUNGWOO” MCHJ korxonasining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga oid amaliy ma'lumotlari hisoblanadi. Mamlakatimiz sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini oshirish ishning predmeti bo'lib hisoblanadi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. Ushbu mavzuga oid ishlar xorijiy olimlardan: B. Nidlz, X Anderson, D.Kolduell, Robert Pindayk, Daniel Rubinfeld

va boshqa olimlar. O'zbekistonlik olimlardan esa: M.K.Pardaev, A.Ortiqov, E.X.Mahmudov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan bajarilgan.

Ishning ilmiy yangiligi. Korxona xarajatlari va daromadlarini shakllanishini samarali boshqarishning barcha uslubiy qirralari hamda takomillashtirish yo'nalishlari, sohadagi barcha islohotlarni qamrab olinganligi va ishlab chiqarish korxonalari xarajatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari ishda ilmiy yangilik sifatida taqdim etilmoqda.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Bitiruv malakaviy ishi: kirish qismi, uchta asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlardan iborat.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston bozor munosabatlari sharoitida jaxon xo'jalik tizimida yildan-yilga o'z o'rnini topib bormokda. Respublikamizda korxona xarajatlari va daromadlarini shakllantirib ularning hisobini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan to'g'ri va asosli ravishda yuritish korxonalarining iqtisodiy rivojlanishida, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda va foydalilik darajasini ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona xarajatlari va daromadlarini to'g'ri shakllantirish korxona moliyaviy xisobotlarini to'g'ri tayorlanishiga, shu bilan birga boshqaruv karorlarini to'g'ri qabul qilishga asos hisoblanadi. Korxonalarining xarajatlari va daromadlarini shakllantirishda ma'lum me'yoriy xuquqiy xujjatlarga asoslanamiz. Birinchi bobda yozib o'tganimizdek, bu me'yoriy xujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 sonli «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chikarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizomi xisoblanadi. Yuqorida korxona xarajatlari va daromadlarini iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini, turkumlanishini va korxona moliyaviy natijalarini shakllanishini o'rganib chiqdik. Korxona bugungi kunda zarar bilan ishlab kelmoqda, buning sababi korxona xom-ashyoni chet davlatlardan sotib oladi. Sotib olish valyutada amalga oshiriladi va natijada kurs farqidan zararlar paydo bo'ladi. Ushbu zararlar korxona uchun bartaraf yetadigan muammo hisoblanadi. Ikkinchi bobda "UZSUNGWOO" MCHJ qo'shma korxonasi mahsulotlari kalkulyatsiyasi va xarajatlari shakllanish tahlili o'rganib chiqildi. Ikkinchi bobning birinchi savolida korxonaning asosiy faoliyati xarajatlari – material, mehnat va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarning taqsimlanishi aloxida o'rganilib tahlil qilib chiqildi. "UZSUNGWOO" MCHJ qo'shma korxonasida ishlab chiqarish mahsulotlariga sarflangan xarajatlarning eng ko'p qismi quyidagilarga sarflanadi:

- Moddiy xarajatlar;
- Mehnat xarajatlar;
- Yagona ijtimoiy to'lov;

- Amortizatsiya xarajati;
- Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.

Mahsulot tannarxini shakillanishida material xarajatlar katta o'rin egallaydi. Buning asosiy sababi xom – ashyoni chet davlatlardan olib kelinishidir. “UZSUNGWOO”MCHJ qo'shma korxonasida detallarni tayyorlashda ikki xil xom-ashyodan foydalanadi. Bular SKD bo'lit gaykalar va SOILlardir. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini 80% salmog'i aynan material xarajatlariga to'g'ri keladi. Buning asosiy sababi materiallarning chet davlatdan kelishidadir. “UZSUNGWOO”MCHJ qo'shma korxonasida material xarajatlarini asosiy qismini tashish xarajatlari tashkil etgan. Birinchisi SKD bo'lit gaykalar Koreya respublikasidan olib kelinadi. Bunda asosiy xarajatalar tashish ya'ni transport xarajatlaridir. Ikkinchisi SOIL materiallari Rossiya davlatidan olib kelinadi va unda ham transport xarajatlari material tannarxiga qo'shiladi va ishlab chiqarish xarajatlarini ko'tarib yuboradi. Korxona kelgusi davrlarda aynan o'sha materiallarni mahaliylashtirishi natijasida mahsulot tannarxini pasaytirishi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiluvchi xarajatlardan biri bu mexnat xarajatlaridir. Korxonada xozirgi davrda mexnat xarajatlari yaxshi yo'lga qo'yilgandir.

Amortizatsiya xarajatlari korxonada ishlab chiqarish xarajatini katta qismini tashkil qiladi. Xozirda korxonada barcha vositalar o'z o'rnidadir. 2013- yilda umumiy xarajatlarni 8% ni tashkil qiladi.

Korxona bugungi kunda asosiy vositalaridan to'liq foydalanmaydi. Buning asosiy sababi talab faqatgina bir tamonlamadir. Korxona bugungi kunda asosiy vositalaridan o'rtacha 84% foydalanadi. Asosiy vositalarning ishlab chiqarish quvvati 120 ming komplekt hisoblanadi, ammo korxona faqatgina 67 ming komplekt ishlab chiqaradi. Bevosita amortizatsiya xarajatlariga to'xtalsak, korxonada eskirish to'g'ri chiziqli usulda xisoblanadi. Buning natijasida xisoblangan eskirish 100% quvvatga tegishlidir. Ammo amortizatsiya ishlab

chiqarish usulida xisoblansa 100% quvvatga emas, balki aynan 84% ga tegishli bo'ladi. Buning natijasida mahsulot tannarxi iqtisod qilinishiga erishiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiluvchi xarajatlardan yana biri bu boshqa ishlab chiqarish xarajatlaridir. Bu xarajatlar umumiy xarajatlarni 7.94%ni tashkil etadi. Korxonada bu ko'rsatkichni xam oldini olish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Korxonani xozirda eng asosiy muomalaridan biri bu valyuta bilan bog'liqdir. Korxona valyuta bilan ishlovchi xisoblanib, moliyaviy xarajatini katta qismini kursdagi xarajatlar tashkil qiladi. Bundan tashqari valyuta baxolovchi birjaga xam kammision to'lovlar to'laydi. Korxona xozirda zarar bilan ishlashga majbur xisoblanadi. Buning yana bir asosiy sababi bu kredit foizlari xisoblanadi. Korxona xozirda ishlab chiqarishni kengaytirish va ishlab chiqarish xajmini oshirishni rejalashtirmoqda va yaqin yillarda daromadlari ko'payadi. "UZSUNGWOO" qo'shma korxonasida yuqoridagi takliflarni inobatga olib material va amortizatsiya xarajatlariga to'xtalib o'tamiz. Agar korxona SKD bo'lit gaykalarini va SOIL materiallarini maxaliylashtirsa, material xarajatlarida o'zgarishlar paydo bo'ladi. Agar material ishlab chiqarish maxaliylashtirilsa, ushbu xarajat 30% ga kamayadi. Tannarxni kamaytirishni yana bir ko'rsatkich bilan ko'rib chiqamiz. Bu ko'rsatkich amortizatsiya bilan bog'liqdir. Korxonada ishlab chiqarish vositalari uchun xisoblangan amortizatsiya xarajati butun bir quvat uchun xisoblangan va to'g'ri chiziqli usulda xisoblangan. Agar amortizatsiya ishlab chiqarish usulida xisoblansa bu xarajat 100% li quvat uchun emas balki 84% quvvat uchun xisoblanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarni inobatga maxsulot tannarxi xisoblansa korxonani faoliyati ijobiy tammonga o'zgaradi. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot kal'kulyatsiyasi va «xarajatlar – mahsulot xajmi – foyda»tahlili o'rganib chiqildi. Mahsulot tannarxi kal'kulyatsiyasining quyidagi ikki usuli o'rganildi:

-Xarajatlarni to'la taqsimlab tannarxni kal'kulyatsiya qilish (abzorpshen-kosting)

-Tannarxni o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha kal'kulyatsiyalash (direkt-

yoki veribl-kosting)

Tahlil natijasida biz quyidagi xulosani oldik:

Direkt-kosting qaror kabul qilish uchun foydali axborot bilan ta'minlaydi. Xarajatlarni o'zgaruvchi va doimiy xarajatlarga ajratish, ishlab chiqarish yoki komponentlarni xarid qilishga doir qarorlar qabul qilish, mahsulot turlarini aniqlash uchun axborot olish imkonini beradi. Foydani zahiralar o'zgarishi ta'siridan hosil qiladi. Direkt-kostingdan foydalanilganda foyda mahsulotni sotish hajmiga bog'liq bo'ladi. Abzorpshe-kostingdan foydalanilganda foydaga sotilgan mahsulot xajmi xam, ishlab chiqarish xajmi xam ta'sir qiladi. SHu sababli direkt-kosting zahiralar bilan nayrang qilishga yo'l qo'ymaydi va menejerlar ishini baxolashga juda mos keladi.

Abzorpshe-kosting doimiy ishlab chiqarish xarajatlariga yetarli e'tibor beradi.

«Xarajatlar — mahsulot xajmi – foyda» tahlilini o'rganib chiqqach biz quyidagi savollarga javob topdik. Xozirgi kunda korxonada ularni ma'lum davr ichida zarar ko'rmaslik uchun qancha mahsulot ishlab chiqarib sotishi lozim? Ma'lum bir ko'zlangan foydaga erishish uchun yana qancha mahsulot ishlab chiqarib, sotilishi kerak? Biz yuqorida korxona xarajatlarini qisqartirish va daromadlilikini oshirishning quyidagi uchta omillarini o'rganib chiqdik:

1. Xom-ashyoni maxaliylashtirish.
2. Korxonada ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishni yaxshilash.
3. Amortizatsiya xisoblashni maqbul variantini tanlash.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, korxonaning faoliyati yuzasidan qarorlar qabul qilishda, korxona xarajatlari va daromadlarini shakllanishini tahlili asosiy manbaa xisoblanadi.

Xozirgi kunda korxonalarni jaxon standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarishi uchun biz ko'p korxonalarni modernizatsiyalashtirishimiz lozim xisoblanadi. Men bu mavzuni o'rganish jarayonida shu narsani aniqladimki korxonaga yangilik kirgizmasdan va yuqoridagi omillardan foydalanmasdan turib,

korxona tannarxini kamaytirish va daromadlilikni oshirishga erishib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” Toshkent. “O‘zbekiston” 2013 y.
2. I. A. Karimov. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” Toshkent. “O‘zbekiston” – 1995y.
3. I. A. Karimov. “Tadbirkorlik – yuksalish garovi” T. “O‘zbekiston”, 2002 y.
4. I. A. Karimov. “Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” T.: “O‘zbekiston”, 2005 y.
5. Abduraxim O. Sanoat iqtisodiyoti. “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2004 y.
6. Abduraxmonov Q. A. “Mehnat iqtisodiyoti”. T.: “Mehnat”, 2004 y.
7. Bayrasheva A.Z., Vanina M.S., Kudbiev SH.D., Xayitboev B.A. Boshkaruv xisobi. Buxgalteriya xisobining Milliy va Xalkaro standartlari asosida tayorlangan o‘quv qo‘llanma. T.:2003 y.
8. Ergashev Ye. «Iqtisodiy va moliyaviy tahlil» 2 – nashr T.:2005y.
9. Maxmudov E. X. “Korxona iqtisodiyoti” O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti T.: 2004 y.
10. Nasriddinov M. A., Axmedov O. M., “Biznes strategiyasi”. T.: “SHarq”, 1996 y.
11. Nidlz. B., Anderson. X., D. Koldouell. D. «Printsipy Buxgalterskogo Ucheta» Finansy i statistika. M.:2003g.
12. Pardaev M. K. «Iqtisodiy tahlil» T.: “Mehnat” – 2004 y.
13. Rasulov M. “Bozor iqtisodiyoti asoslari” T.: “O‘zbekiston”, 1999 y.
14. Robert Pindayk, Daniel Rubenfel’d, «Mikroiqtisod» “SHarq” nashriyot–matbaa, Aktsiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya–2002 y.

15. Sultonova D. A., Muminova S. X., Tuxsanov X. A., Tulaxujaeva M. M. Mo'ydinov E. J., Kim L. A. «Moliyaviy hisob» Buxgalteriya xisobining Milliy va Xalkaro standartlari asosida tayorlangan o'quv qo'llanma. T.: 2004g.
16. "Soliq va buxgalteriya xisobi" jurnali 2008 yil nashrlari
17. Xoshimov B. «Buxgalteriya xisobi nazariyasi» darslik «Yangi asr avlodi» nashriyoti 2004 yil.
18. bfa.re.uz/scientific_works/doctors/doctors_eng.htm (olib borlayotgan ilmiy ishlar sayti)
19. [http:// www book.ru](http://www.book.ru) (Kitoblar tuplami)
20. [http://www mf uz](http://www.mf.uz) (Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
21. <http://www.jahon.mfa.uz>
22. [http:// www proizvodstvo.ru](http://www.proizvodstvo.ru) (metody proiz)